TOSHKENT
AMALIY FANLAR
UNIVERSITETI

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MASALALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

XALQARO ILMIY – AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

• 13-iyun 2026-yil •



TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI

“IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MASALALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”

XALQARO ILMIY – AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI
(13-iyun 2026-yil)

“CURRENT ISSUES AND MODERN APPROACHES IN THE SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES”

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
(June 13, 2026)

“АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ В СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ”

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
(13 июня 2026 г.)

Toshkent-2026

Ushbu konferensiya to‘plamida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi 11-sonli buyrug‘ining 1-ilovasiga muvofiq, 2026-yil 13-iyun kuni Toshkent amaliy fanlar universitetida o‘tkazilgan **“IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MASALALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga kelib tushgan tezislar nashr etilgan.

Konferensiya to‘plami Toshkent amaliy fanlar universitetining Tarix va filologiya fakulteti tomonidan jamlandi. Konferensiya to‘plami tarkibidagi barcha tezislarga DOI unikal raqami biriktirilib, Crossref, Open Aire, Google Scholar, Slib.uz xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi. Konferensiya to‘plami materiallaridan professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o‘qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tashkilotchilar:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurudagi Innovatsion rivojlanish agentligi, Toshkent Davlat Transport Universiteti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy hamkorlarimiz:

Lincoln University College, Osh Texnologiya Universiteti, Anhalt amaliy fanlar universiteti, Vidzeme amaliy fanlar universiteti, RISEBA Amaliy Fanlar Universiteti, Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi Xalqaro Qozoq-Turk universiteti, Karabuk universiteti, Warwick Biznes Maktabi, Sakarya universiteti, Xalqaro fan va biznes universiteti

Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan ilmiy tezislardagi raqamlar, hisobotlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

© Toshkent amaliy fanlar universiteti

www.utas.uz

https://science-utas.org

KONFERENSIYA DASTURIY QO‘MITA TARKIBI:

1.	Prof. Umarov Abdusalom Vaxitovich	Toshkent amaliy fanlar universiteti rektori (O‘zbekiston)
2.	Prof. Madjidov Inom Urishevich	Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti rektori (O‘zbekiston)
3.	Prof. Gulamov Abdulaziz Abdullayevich	Toshkent Davlat Transport Universiteti rektori (O‘zbekiston)
4.	Prof. Dr. Amiya Bhaumik	Lincoln University College prezidenti (Malayziya)
5.	Prof. Tursunbayev Janbolot Janishovich	Osh Texnologiya Universiteti rektori (Qirg‘iziston)
6.	Prof. Yorg Bagdan	Anhalt amaliy fanlar universiteti rektori (Germaniya)
7.	Prof. Agnese Davidson	Vidzeme amaliy fanlar universiteti rektori (Latviya)
8.	Prof. Sennikova Irina	RISEBA Amaliy Fanlar Universiteti rektori (Latviya)
9.	Prof. Temirbekova Janar Abilgazievna	Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi Xalqaro Qozoq-Turk universiteti (Qozog‘iston)
10.	Prof. Fatih Kırışık	Karabuk universiteti rektori (Turkiya)
11.	Prof. Andy Lockett	Warwick biznes maktabi dekani (Buyuk Britaniya)
12.	Prof. Dr. Hamza Al	Sakarya universiteti rektori (Turkiya)
13.	Prof. Asanaliev Nurgali Saginbekovich	Xalqaro fan va biznes universiteti rektori (Qirg‘iziston)
14.	Prof. Francis Quek	Aventis Graduate School Global hamkorlik idorasi direktori, xalqaro ta’lim bo‘yicha ekspert, (Singapur)
15.	Prof. Kim Soon Gohn	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurudagi Innovatsion rivojlanish agentligi direktori maslahatchisi (Koreya)
16.	Dots. Shonazarov Qaxramon Rabbimovich	TAFU yoshlar bilan bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha prorektor
17.	PhD, dots. Vapayev Murodjon Dusummatovich	TAFU o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
18.	PhD, dots. Yusupov Artukbek Adilovich	TAFU rektor maslahatchisi
19.	PhD, dots. Xo‘jakulov Toshtemir Abduxafizovich	TAFU IT bo‘yicha rektor maslahatchisi
20.	Saitxanov Akbarshox Nadirovich	TAFU ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashga mas’ul bo‘lgan rektor maslahatchisi
21.	Prof. Kayumov Olim Sadriddinovich	TAFU ilmiy kotibi
22.	PhD, dots. Saitov Elyor Bahriddinovich	TAFU rais o‘rinbosari, Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik bo‘lim boshlig‘i
23.	Prof. Axmedov Ikrom Akramovich	TAFU Iqtisodiyot fakulteti dekani
24.	Dots. Xidirov Abror Mo‘minovich	TAFU Tarix va filologiya fakulteti dekani
25.	Dots. Raxmatullayeva Azada Rustamovna	TAFU Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri
26.	Dots. Baxadirov Jaxangirmirzo Abdumajitovich	TAFU Xorijiy til va adabiyot kafedrasi mudiri
27.	Dots. Tojiboyev Botir Raximjonovich	TAFU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri

KONFERENSIYA TASHKILIY QO‘MITASINING TARKIBI:

1.	D.T. Amriddinova	TAFU Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi professori
2.	N.E. Sultonova	TAFU Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
3.	M. Raximova	TAFU Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
4.	S.T. Bekmurodov	TAFU Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
5.	M.R. Mengliyev	TAFU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori
6.	X.Q. Hamraqulova	TAFU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori
7.	R.S. Shodiyev	TAFU Tillar kafedrasi dotsenti
8.	N.S. Nuritdinov	TAFU Tillar kafedrasi dotsenti
9.	Sh.Y. Bobojonova	TAFU Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi dotsenti
10.	M. Zayniyeva	TAFU Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi, PhD
11.	N.N. Azimov	TAFU Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik bo‘limi bosh mutaxassisi
12.	O.Q. Mamasaliyev	TAFU Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik bo‘limi mutaxassisi
13.	U.M. Ahmedov	TAFU Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik bo‘limi mutaxassisi
14.	B.Sh. O‘rolov	TAFU Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik bo‘limi mutaxassisi



Hurmatli konferensiya ishtirokchilari, qadrli olimlar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va mehmonlar!

Bugun Toshkent amaliy fanlar universitetida “Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari va zamonaviy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada Siz azizlarni samimiy qutlashdan mamnunman. Mazkur nufuzli anjuman O‘zbekiston va dunyoning turli mamlakatlaridan tashrif buyurgan olimlar, tadqiqotchilar, ekspertlar hamda yosh izlanuvchilarni yagona ilmiy maydonda birlashtirib, zamonaviy ilm-fan taraqqiyotining eng muhim masalalarini muhokama qilish uchun keng imkoniyat yaratmoqda. Konferensiya Toshkent amaliy fanlar universiteti tomonidan O‘zbekiston va xorijning qator nufuzli oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan bo‘lib, uning xalqaro maqomi ilmiy hamkorlikning yangi ufqlarini ochishga xizmat qilmoqda.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, katta ma’lumotlar (Big Data) va innovatsion ta’lim modellari insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini shakllantirmoqda. Bunday sharoitda tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, pedagogika, tarjimashunoslik va ijtimoiy fanlar nafaqat madaniy va ma’naviy taraqqiyotning, balki barqaror iqtisodiy rivojlanishning ham muhim omiliga aylanmoqda.

Toshkent amaliy fanlar universiteti ham aynan shu maqsad yo‘lida ilm-fan, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni o‘zining ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Bugungi kunda universitetimiz dunyoning TOP-1000 talik reytinglarida munosib o‘rin egallagan 10 ga yaqin nufuzli universitetlari bilan qo‘shma ta’lim dasturlari, akademik almashinuv va ilmiy tadqiqot loyihalarini jadal rivojlantirmoqda. Ushbu hamkorliklar orqali talabalarimiz va

professor-o‘qituvchilarimiz xalqaro akademik makonning ilg‘or tajribalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Shuningdek, universitetimizning xalqaro aloqalari tobora kengayib bormoqda. Hozirgi kunga qadar 30 dan ortiq xorijiy oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va xalqaro tashkilotlar bilan memorandumlar va hamkorlik bitimlari imzolangan. Bundan tashqari, mamlakatimizdagi yetakchi universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari hamda ishlab chiqarish korxonalari bilan 10 dan ortiq strategik hamkorlik kelishuvlari amalga oshirilgan bo‘lib, bu ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Hurmatli mehmonlar!

Universitetimizning ilmiy salohiyati va akademik faoliyati xalqaro reytinglarda ham o‘z aksini topmoqda. Yaqinda e’lon qilingan Uzbekistani National H-index Ranking – 2026 natijalariga ko‘ra, Toshkent amaliy fanlar universiteti Milliy H-index bo‘yicha 24 ko‘rsatkich bilan respublika miqyosida 28-o‘rinni, Scopus bazasi bo‘yicha H-index 29 va 22-o‘rinni, Web of Science bo‘yicha H-index 27 va 17-o‘rinni, Google Scholar bo‘yicha H-index 29 va 44-o‘rinni egalladi. Ushbu natijalar universitetimizning ilmiy faoliyati, xalqaro nashrlardagi faolligi va tadqiqotchilarimizning ilmiy ta’sir darajasi yildan-yilga ortib borayotganidan dalolat beradi.

Bugungi konferensiya dasturiga nazar tashlasak, unda sun’iy intellektning ta’lim va ijtimoiy fanlardagi o‘rni, raqamli transformatsiya, tarixiy merosni zamonaviy tadqiq etish metodlari, xorijiy tillarni o‘qitish innovatsiyalari, tarjimashunoslikning yangi yo‘nalishlari hamda lingvistik tadqiqotlarning dolzarb masalalari kabi mavzular keng qamrovda muhokama qilinmoqda. Bu esa konferensiyaning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Biz ishonamizki, ushbu anjuman davomida bildiriladigan ilmiy g‘oyalar, innovatsion yondashuvlar va akademik takliflar nafaqat ilm-fan rivojiga, balki ta’lim sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash hamda jamiyat taraqqiyotiga ham munosib hissa qo‘shadi.

Fursatdan foydalanib, konferensiyani tashkil etishda yaqindan hamkorlik qilayotgan barcha xorijiy va mahalliy hamkor tashkilotlar, universitetlar, ilmiy markazlar, professor-o‘qituvchilar va tadqiqotchilarga chuqur minnatdorlik bildiraman. Ayniqsa, Singapur, Germaniya, Italiya, Fransiya, Turkiya, Malayziya, Hindiston, Eron, Gana, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va boshqa davlatlardan konferensiyamiz ishida qatnashayotgan olimlarning ishtiroki mazkur anjumanning xalqaro nufuzini yanada yuksaltirmoqda.

Barchangizga mustahkam sog‘liq, ilmiy izlanishlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar, samarali muloqot va yangi ilmiy yutuqlar tilayman.

“Ilm-fan taraqqiyoti – insoniyat taraqqiyotining eng ishonchli poydevoridir.”

Konferensiya ishiga muvaffaqiyat va barakali munozaralar tilagan holda, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani ochiq deb e’lon qilaman!

E’tiboringiz uchun rahmat!

Umarov Abdusalom Vaxitovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Honored participants, distinguished scientists, professors, researchers, and guests!

Today, it is my great pleasure to sincerely welcome you all to the international scientific-practical conference on **"Current Issues and Modern Approaches in Social Sciences and Humanities"** held at the Tashkent University of Applied Sciences. This prestigious forum brings together scientists, researchers, experts, and young scholars from Uzbekistan and various countries around the world into a single scientific platform, creating broad opportunities to discuss the most vital issues of modern scientific development. The conference has been organized by the Tashkent University of Applied Sciences in cooperation with a number of prestigious higher education institutions in Uzbekistan and abroad, and its international status serves to open new horizons for scientific collaboration.

In today's era of globalization and digital transformation, the importance of social sciences and humanities is steadily increasing. Artificial intelligence, digital technologies, Big Data, and innovative educational models are shaping a new stage of human development. In such environment, history, linguistics, literary studies, pedagogy, translation studies, and social sciences are becoming essential factors not only for cultural and spiritual advancement but also for sustainable economic development.

With this exact goal in mind, Tashkent University of Applied Sciences has identified the development of science, innovation, and international cooperation as one of its top strategic priorities. Today, our university is actively developing joint educational programs, academic exchanges, and scientific research projects with around 10 prestigious universities ranked among the global TOP-1000. Through these partnerships, our students and faculty members gain the opportunity to benefit from the advanced experiences of the international academic community.

Furthermore, the international relations of our university continue to expand. To date, memorandums and cooperation agreements have been signed with more than 30 foreign higher education institutions, research centers, and international organizations. In addition, more than 10 strategic partnership agreements have been implemented with leading universities, research institutes, and industrial enterprises in our country, which serves to strengthen the integration of science, education, and production.

Distinguished Guests!

The scientific potential and academic performance of our university are also reflected in international rankings. According to the recently published results of the Uzbekistani National H-index Ranking – 2026, Tashkent University of Applied Sciences ranked 28th nationwide with a National H-index score of 24, positioned 22nd with an H-index score of 29 in the Scopus database, ranked 17th with an H-index score of 27 in Web of Science, and achieved the 44th place with an H-index score of 29 in Google Scholar. These outcomes demonstrate that our university's scientific performance, its activity in international publications, and the scientific impact of our researchers are growing year by year.

Looking at today's conference agenda, it covers a wide range of topics such as the role of artificial intelligence in education and social sciences, digital transformation, modern methods of researching historical heritage, innovations in foreign language teaching, new directions in translation studies, and current issues in linguistic research. This further enhances the scientific and practical significance of the conference.

We strongly believe that the scientific ideas, innovative approaches, and academic proposals presented during this forum will make a worthy contribution not only to the advancement of science

but also to improving the quality of education, strengthening international cooperation, and promoting societal progress.

Taking this opportunity, I would like to express my deepest gratitude to all foreign and local partner organizations, universities, research centers, professors, teachers, and researchers who have worked closely with us to organize this conference. In particular, the participation of scholars joining our conference from Singapore, Germany, Italy, France, Turkey, Malaysia, India, Iran, Ghana, Kazakhstan, Kyrgyzstan, and other nations elevates the international prestige of this event even further.

I wish you all robust health, great success in your scientific endeavors, productive dialogue, and new academic achievements.

"The progress of science is the most reliable foundation for human progress."

Wishing the conference great success and fruitful discussions, I hereby declare this international scientific-practical conference open!

Thank you for your attention!"

Abdusalom Umarov
Rector of University of Tashkent for Applied Sciences,
Doctor of Technical Sciences, Professor

3-SHO‘BA

TARIX VA IJTIMOIY FANLAR: METODOLOGIYA VA ZAMONAVIY TALQINLAR

CURRENT ISSUES IN HISTORY AND HISTORIOGRAPHY RESEARCH: SOURCE STUDIES, METHODOLOGY, AND MODERN INTERPRETATIONS

ИСТОРИЯ И СОЦИАЛЬНЫЕ НАУКИ: МЕТОДОЛОГИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

KON-METALLURGIYA HAMDA KIMYO SOHALARIDA INNOVATSION MUHANDIS KADRLAR TAYYORLASH TARIXI VA ISTIQBOLLARI

Ro‘ziyeva Muxlisa Baxodir qizi

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti assistent o‘qituvchisi
E-mail: roziyevamuxlisa29@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda kon-metallurgiya va kimyo sanoati uchun innovatsion muhandis kadrlar tayyorlashning tarixiy bosqichlari va dual ta’lim tizimini rivojlantirish istiqbollari yoritiladi. Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi qiyosiy tahlil qilinadi, O‘zbekistonda dual ta’limning normativ-huquqiy asoslari, raqamli texnologiyalar va “Oliy ta’lim – fan – ishlab chiqarish” integratsiyasining kadrlar tayyorlash sifatiga ta’siri hamda sohadagi muammolar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: dual ta’lim, innovatsiya, muhandis kadrlar, kon-metallurgiya, kimyo sanoati, raqamli texnologiyalar, Navoiy viloyati.

Abstract. The thesis examines the historical stages of training innovative engineering personnel for the mining, metallurgical and chemical industries and the prospects for developing the dual education system. The experience of Germany and the Republic of Korea is analysed comparatively, and the legal framework of dual education in Uzbekistan, the impact of digital technologies and of the integration of higher education, science and industry on the quality of training, and the current problems of the sector are discussed.

Keywords: dual education, innovation, engineering personnel, mining and metallurgy, chemical industry, digital technologies, Navoi region.

Kirish

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida kon-metallurgiya hamda kimyo sanoati iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, raqamlashtirilishi va innovatsion texnologiyalarning keng qo‘llanilishi ushbu sohalarda faoliyat yuritadigan muhandis kadrlarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Zamonaviy sanoat korxonalari nafaqat nazariy bilimga ega, balki amaliy ko‘nikmalarni puxta egallagan, murakkab texnologik jarayonlarni boshqara oladigan malakali mutaxassislarni talab etadi. Shu sababli nazariya va amaliyotni uzviy bog‘lovchi dual ta’lim tizimi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tezisning maqsadi kon-metallurgiya va kimyo sohalari uchun muhandis kadrlar tayyorlash tizimining tarixiy shakllanishini kuzatish hamda dual ta’lim modelini rivojlantirish istiqbollarini baholashdan iborat. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil va normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Dual ta’limning tarixiy ildizlari va xorijiy tajriba

Dual ta’lim tizimi – bu ta’lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik asosida tashkil etiladigan o‘qitish modeli bo‘lib, unda talabalar bir vaqtning o‘zida nazariy bilim va amaliy tajriba orttiradi [1]. Mazkur tizim Germaniya, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi sanoati rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozori talablariga mos muhandis kadrlar tayyorlashda yuqori samaradorligini namoyon etgan.

Dual tizimning klassik namunasi hisoblangan Germaniyada kasbiy ta’lim 1969-yilda qabul qilingan “Kasbiy ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (Berufsbildungsgesetz) bilan yaxlit huquqiy asosga ega bo‘ldi, qonun 2005 va 2020-yillarda yangilandi [2]. Muhandislik ta’limi uchun muhim jihat shundaki,

dual tamoyil oliy ta'lim darajasiga ham ko'chirildi: 1974-yil oktabrida Baden-Vyurtemberg kasbiy akademiyasi (Berufsakademie) Shtutgart va Mannheymda 160 nafarga yaqin talaba bilan faoliyat boshlagan, 2009-yil 1-martda esa u Baden-Vyurtemberg dual oliy maktabiga (DHBW) aylantirilgan [3].

Janubiy Koreyada Mehnat va bandlik vazirligi tomonidan 2013-yilda Germaniya va Shveytsariya tajribasi asosida "Ish va o'qish dual tizimi" (Work-Learning Dual System) joriy etildi va 2014-yildan to'liq miqyosda amalga oshirila boshlandi. 2018-yil 31-iyul holatiga ko'ra 10 567 ta korxonada 70 014 nafar ishchi-o'quvchi tayyorlangan, ishtirokchi korxonalarning 95,8 foizini xodimlari soni 300 nafargacha bo'lgan kichik va o'rta korxonalar tashkil etgan [4]. Demak, dual modelni kichik va o'rta korxonalar ham qo'llay oladi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda xorijiy tajribani mexanik ko'chirishga tanqidiy munosabat ham mavjud. T. Daysinger (T. Deißinger) nemis tizimining samaradorligi faqat ikki ta'lim maskanining mavjudligi bilan emas, balki aniq belgilangan kasb (Beruf) tamoyili va murakkab institutsional muhit bilan bog'liqligini ko'rsatib, uni "ilg'or tajriba" sifatida baholashga ehtiyotkorlik bilan yondashish lozimligini asoslaydi [5]. Bizningcha, bu tanqid dual ta'limning afzalliklarini inkor etmaydi, balki ular milliy institutsional sharoitga moslashtirilgandagina to'liq namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Navoiy viloyatida kon-metallurgiya sohasi uchun kadrlar tayyorlash bosqichlari

Navoiy viloyati misolida soha uchun kadrlar tayyorlash jarayonini muallif tomonidan shartli ravishda uch bosqichga ajratish taklif etiladi. Birinchi bosqich 1958-yil 1-sentabrda Navoiy kon-metallurgiya kombinatining tashkil etilishi bilan boshlanadi. Bu davr sanoat bazasining shakllanishi, 1967-yilda Muruntov konida dastlabki portlatish ishlarining o'tkazilishi va 1969-yilda birinchi oltin quymasining olinishi bilan tavsiflanadi [6].

Ikkinchi bosqich mustaqillik yillariga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 7-iyuldagi PF-1203-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 26-iyuldagi 289-son qarori asosida kon-metallurgiya majmuasi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida Navoiy davlat konchilik instituti tashkil etildi. Institut tarkibidagi konchilik, energo-mexanika hamda kimyo-metallurgiya fakultetlari kon-metallurgiya va kimyo yo'nalishlarini yagona ta'lim maskanida birlashtirdi [7].

Uchinchi bosqich 2020-yildan boshlanib, dual ta'limning huquqiy jihatdan institutsionallashuvi bilan tavsiflanadi. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasida dual ta'lim ta'lim olish shakllaridan biri sifatida belgilandi, 17-moddasida esa uning nazariy qismi ta'lim tashkilotida, amaliy qismi ta'lim oluvchining ish joyida o'tkazilishi mustahkamlandi [8]. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 163-son qarori professional ta'limda [9], 2025-yil 16-yanvardagi 14-son qarori esa oliy ta'limda dual ta'limni tashkil etish tartibini belgiladi [10]. Keyingi hujjatga ko'ra, talaba haftasiga kamida ikki kun oliy ta'lim tashkilotida nazariy mashg'ulotlarda qatnashadi, qolgan kunlarda korxonada amaliy faoliyat olib boradi; korxona, oliy ta'lim tashkiloti va talaba o'rtasida uch tomonlama bitim tuziladi, korxona esa talabaga amaliyot rahbari (ustoz) biriktirib, mehnat qonunchiligiga muvofiq ish haqi to'laydi [10]. Shu davrda Prezidentning 2022-yil 31-martdagi PQ-186-son qarori bilan Navoiy davlat konchilik instituti Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti etib qayta tashkil etildi [11].

Muallif nuqtai nazaridan, ushbu bosqichning e'tiborli jihati shundaki, 14-son qarorga ko'ra oliy ta'limdagi dual ta'limning "Kasb egasi" yo'nalishi 2025/2026 o'quv yilidan birinchi bosqichda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining 3–4-kurs talabalarini qamrab oladi [10]. Demak, kon-metallurgiya va kimyo sohalarida oliy ta'lim darajasidagi dual ta'lim hali shakllanish bosqichida bo'lib, uning samaradorligini baholash uchun empirik ma'lumotlar yetarli emas.

Raqamli texnologiyalar va "Oliy ta'lim – fan – ishlab chiqarish" integratsiyasi

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish ham muhandis kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Virtual laboratoriyalar va sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida talabalar murakkab texnologik jarayonlarni interaktiv tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ularning texnik tafakkuri, mustaqil fikrlashi va innovatsion yondashuvlarini rivojlantiradi. Ayniqsa, xavfli ishlab chiqarish jarayonlarini virtual muhitda o'rganish xavfsizlikni ta'minlash bilan birga ta'lim samaradorligini ham oshiradi.

Shuningdek, "Oliy ta'lim – fan – ishlab chiqarish" integratsiyasini kuchaytirish dual ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari va sanoat korxonalari o'rtasidagi hamkorlik innovatsion loyihalarni amalga oshirish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish hamda yangi texnologiyalar yaratishga xizmat qiladi. Talabalarni startap loyihalar, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarga jalb qilish orqali ularning ijodiy va kasbiy salohiyati rivojlanadi [12].

Bundan tashqari, dual ta'lim tizimi yoshlarning bandligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Talabalar o'qish davomida korxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishgani sababli kelajakda ish joyiga moslashish jarayoni osonlashadi. Korxonalar esa o'z ehtiyojiga mos mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlaydi.

Muammolar va istiqbollar

Tahlil sohada dual ta'limni kengaytirish yo'lidagi quyidagi muammolarni ko'rsatadi. Birinchidan, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida talabalarning ish joyida bo'lishi mehnat muhofazasi talablari bilan cheklanadi, shu bois amaliy qismni virtual laboratoriya va trenajyorlar bilan to'ldirish zarurati paydo bo'ladi. Ikkinchidan, korxonalar biriktiradigan ustozlarning pedagogik tayyorgarligini oshirish alohida e'tibor talab etadi. Uchinchidan, muallif fikricha, tor ixtisoslashuv xavfi mavjud: muhandis muayyan korxona texnologiyasi bilan cheklanib qolmasligi uchun fundamental tayyorgarlik saqlanishi lozim. Shu asosda yirik korxonalar bilan uch tomonlama bitimlar asosida qo'shma o'quv rejalarini ishlab chiqish, ustozlar malakasini oshirish va dual dasturlar samaradorligini bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichlari orqali monitoring qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Kon-metallurgiya va kimyo sanoati uchun muhandis kadrlar tayyorlashda dual ta'lim tizimini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega: u orqali nazariy bilim va amaliy tajriba uyg'unlashadi, talabalar zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydi hamda ishlab chiqarish jarayonlariga tez moslashadigan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlanadi. Tarixiy tahlil Navoiy viloyatida kadrlar tayyorlash sanoat bazasining shakllanishi, ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasasining tashkil etilishi va dual ta'limning huquqiy institutsionallashuvi bosqichlarini bosib o'tganini ko'rsatadi. Keyingi tadqiqotlarda dual ta'lim bitiruvchilarining ishga joylashish va kasbiy moslashuv ko'rsatkichlarini an'anaviy ta'lim bitiruvchilari bilan qiyosiy o'rganish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X. Ta'lim menejmenti va professional ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Federal Institute for Vocational Education and Training (BIBB) [Elektron resurs]. – URL: https://www.bibb.de/en/147679.php (murojaat sanasi: 15.10.2026).
3. DHBW. Pressemitteilung 4/2009 „35 Jahre DHBW" [Elektron resurs]. – URL: https://www.dhbw.de (murojaat sanasi: 15.10.2026).

IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISHDA SUN’IY INTELEKTDAN FOYDALANISHNING NAZARIY METODOLOGIK, HUQUQIY ASOSLARI Hakimov Nazar Hakimovich	345
O‘ZBEKISTON–AVSTRIYA MUNOSABATLARI EVOLYUTSIYASI: SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY JIHATLAR Ismatullayev Farhodjon Odiljonvich	351
O‘ZBEKISTON VA GERMANIYA O‘RTASIDAGI AKADEMIK HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI Ismatullayeva Zebo Shukurjonovna	357
O‘ZBEKISTON–YAPONIYA MUNOSABATLARIDA SIYOSIY MULOQOT VA IQTISODIY DIPLOMATIYANING O‘RNI Qoryog‘diyeva Dilfuza Baxramovna	363
TA’LIM MUASSASALARI TIZIMIDA JISMONIY TARBIYANING O‘RNI VA AXAMIYATI Odilov F.R., Mamirova Sh.M.	369
O‘QUVCHILARINI MILLIY MA’NAVIYATINI SHAKILLANTIRISHDA XALQ O‘YINLARI ORQALI TARBIYALANUVCHILARDA JISMONIY BARKAMOLLIKNI TARBIYALASH Toxirova Dilfuza Mir’agzamovna	373
RAQAMLI DAVRDA AYOLLARNING IJTIMOIY FAOLLIGI KIBERXAVFSIZLIK TAHDIDLARI: STEAM FENOMENINING ADABIY TALQINI G‘afforova Dildora Ergashevna	377
MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA INTELLEKTUAL PROGNOZLASHNING O‘RNI Gafur Shokulovich NAMAZOV	384
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND HUMAN COGNITIVE PROCESSES: FUNDAMENTAL APPROACHES Karamat Kilicheva	391
ECONOMIC COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND TÜRKİYE: PROMISING AREAS FOR COLLABORATION Bülbül ABDULLAYEVA, Doç. Dr. Ali KONAK, Mehmet Akif PEÇE, Mexmonaliyev Doniyorjon Zohidjon o'g'li	395
ANUSHTEGINLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA BUYUK IPAK YO'LI VA UNING TARMOQLARINING RIVOJLANISHI Egamberdieva Nigora, Yunusova Dilnoza	407
KON-METALLURGIYA HAMDA KIMYO SOHALARIDA INNOVATSION MUHANDIS KADRLAR TAYYORLASH TARIXI VA ISTIQBOLLARI Ro‘ziyeva Muxlisa Baxodir qizi	412
IJTIMOIY TARAQQIYOTDA DISKURS VA MA’NO TRANSFORMATSIYASINING KOMMUNIKATIV MEXANIZMLARI Berdikulova Gulsarvinoz Aslamovna	415

TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI

TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI

“IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MASALALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”

XALQARO ILMIY – AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI
(13-iyun 2026-yil)

“CURRENT ISSUES AND MODERN APPROACHES IN THE SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES”

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
(June 13, 2026)

“АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ В СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ”

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
(13 июня 2026 г.)

Conference has been listed in different indexings